

**VOYAGA YETMAGANNI PSIXOTROP MODDALARINI ISTE'MOL ETISHGA
JALB QILISHNING OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH(ICHKI ISHLAR
ORGANLARI MISOLIDA)**

Tursunboyeva Munira Otovulla qizi
Jizzax shahar IIB JXX HPB inspektor-psixolog Kapitan

Annoatsiya: So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida “Inson qadri uchun” degan tamoyil yotibdi. Bundan ko‘rinib turibdiki har bir shaxs jumladan jamiyatimizdagи о‘rni beqiyos bo‘lgan voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklari kafolatlari ta‘minlanadi. Voyaga yetmagananni psixotrop moddalarini iste’mol etishga jalg qilish oldini olish, ularning sodir etish sabablari va ularga imkon bergen sabablari, shart-sharoitlarni bartaraf etish, ularga qo’llaniladigan jinoiy javobgarlik, jinoiy jazo qo’llash masalalarini takomillashtirish bu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad desak mubolag‘a bo’lmaydi. Hozirgi kunda yangi qabul qilingan Konstitusiyada voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy maqomi belgilanishi, ularga nisbatan javobgarlik masalalarini qo’llashda inson huquq va erkinliklari kafolatlari oliy darajada ko’tarilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Voyaga yetmaganlar, oldini olish, jinoyat uchun javobgarlik, ichki ishlar organlari, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, jalg qilishi.

Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 5-fevral kuni o‘tgan videoselektor yig‘ilishida tarbiya va ma’naviyat maktablardagi og‘riqli masalalardan biri ekanini ta’kidladi “2023-yilda O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar tomonidan 3500 ta jinoyatchilik qayd etildi. Ularning 2280 tasi muktab o‘quvchilari hisobiga to‘g‘ri keldi. Prezident maktablarda bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularning “jinoyatga qarshi immunitetini” shakllantirish tizimini yaratish muhimligini aytdi.”⁹

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar muhitini yaxshilash bo‘yicha ko‘rilayotgan amaliy chora-tadbirlar ko‘p jihatdan qisman va mozaik xarakterga ega bo‘lib, faqat yosh avlodni ijtimoiylashtirishning ayrim sohalarini qamrab oladi, ularni amalga oshirish tegishli muammolarning hal etilmaganligi tufayli to’sqinlik qiladi. Voyaga yetmaganlarni psixotrop moddalarini iste’mol qilishga jalg etganlik uchun jinoiy javobgarlik va jazo choralar bo‘yicha hal etilmagan masalalar mavjud.

Zamonaviy sharoitda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari uchun asosiy yo‘nalish jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘lib qolmoqda, bunda asosiy e’tibor jinoyatlarni aniqlash, ochish va ularga chek qo‘yishga qaratilgan. Shu bilan birga, huquqbazarliklar, ayniqsa, voyaga yetmaganlarni psixotrop moddalarini iste’mol

⁹ Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 5-fevral kuni o‘tgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/05/children/>

qilishga jalg etish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishga ham tegishli e'tibor qaratilmayapti.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining faoliyati zamon voqeligiga to'g'ri kelmaydi, bir-birini takrorlash va parallellik, strategik ahamiyatga ega boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kollegiallikning yo'qligi, fuqarolarning ichki ishlar organlariga ishonchi yo'qligi, ichki ishlar organlari faoliyatida o'zaro munosabatlarning yo'qligi, shuningdek, ichki ishlar organlarining faoliyatida bir-birini takrorlash va parallellik kuzatilayotganligi, jinoyatlar sonining ko'payishi va ularning oldini olishning yetarli darajada yuqori emasligi ko'rish mumkin. Shu munosabat bilan ushbu olib borilayotgan tadqiqot ishi davomida aynan Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarga barham berish, ularning sodir etishiga imkon bergan shart sharoitlarni o'rganish hamda kelgusida ushbu yo'nalishda sodir etilishui mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbazarliklarni oldini olishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Voyaga yetmaganlarni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg qilish, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarini yoshartirish butun dunyoda jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning ko'payishiga olib keldi. Giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qiluvchilar tarkibini yoshartirish kabi hodisa O'zbekiston xavfsizligiga haqiqiy tahdid, aholi salomatligi, demografik vaziyat va jamiyatning ma'naviy holati uchun eng jiddiy muammo ekanligini aniq ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining BMTning narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (unodc) bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari yuzasidan to'xtalsak, Xalqaro konvensiya va BMTning rezolyutsiyalariga binoan, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining asosiy maqsadlari bu – a'zo davlatlarda narkotik moddalarni nazorat qilish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi konvensiyalarning bajarilishiga ko'maklashish, shuningdek jinoiy sud jarayonlarini isloh qilish, terrorizm va odam savdosi kabi illatlarni oldini olishdan iborat.

BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkilotining mintaqaviy vakolatxonasi Markaziy Osiyo davlatlariga noqonuniy giyohvand moddalarining savdosi va iste'molini kamaytirish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, shuningdek terrorizmga aloqador jinoyatlarga jazo berish va terrorizm haqida ogohlilikka chaqirish sohasida ko'maklashib kelmoqda. Ushbu tashkilotning mintaqaviy vakolatxonasi Toshkent shahrida joylashgan.¹⁰

¹⁰ <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati/o-zbekiston-va-xalqaro-xavfsizlik-masalalari.html>

O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar o'rtaida huquqbazarlik va jinoyatlarni oldini olish yo'nalishida quyida keltirilgan qonunva qonun osti hujjatlar qabul qilingan hamda ratifikatsiya qilingan:

1 "Bola huquqlari to`g`risida"gi Konvensiya (1989 y.)

2 "Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish bo`yicha BMT rahbariy tamoyillari" (Ar-Riyod rahbariy tamoyillar 1980-y.)

3.O'zbekiston Respublikasining 29.09.2010 yildagi "Voyaga yetmaganlar o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to`g`risida"gi O'RQ-263-sonli qonuni

4. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydag'i "Huquqbazarliklar profilaktikasi to`g`risida"gi O'RQ 371-sonli qonuni

5.2016-yil 14-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to`g`risida"gi O'RQ-406-son qonuni

6.Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 360-sonli qarori.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining oldini olish, jinoyatchilik va jamiyatda sodir etilayotgan boshqa salbiy xatti-harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq vazifalarning belgilab berilishi, ayniqsa davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirilishi, ularning yaxlit bir tizim sifatida faoliyat yuritishi natijasida voyaga yetmaganlar manfaatlarining ta`minlanishida muhim o`rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda, xorijlik ekspertlar tomonidan O'zbekiston Respublikasida sohada olib borilayotgan davlat siyosatining samaradorligi yildan-yilga ortib borayotganligi va o'smirlar muhitida jinoyatchilikning boshqa davlatlarga nisbatan keskin kamayib borayotganligi qayd etilgan.

Dunyo ekspertlarning ta'kidlashicha, so'rovda qatnashgan giyohvandlarning 60% dan ortig'i voyaga etmaganlarida giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qila boshlagan. Psixotrop moddalarga qaram bo'lgan voyaga etmaganlarning 80% ga yaqini boshqalarning ta'siri ostida giyohvandlikka duchor bo'lgan. Ko'pincha o'smirlar guruhi yoshlarni giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ko'ndira olgan "tajribali" giyohvandning atrofida shakllanadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bir giyohvandlik yiliga 10-15 kishini giyohvandlikka jalg qilishi mumkin¹¹.

Qonun chiqaruvchi voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga undaganlik uchun jinoiy javobgarlik va jazoga nisbatan tabaqlashtirilgan yondashuvni nazarda tutmaganligini hisobga olib, voyaga yetmagan shaxsning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilgan yoki iste'mol qilmaganligiga qarab ishlatish o'rinnlidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 274-modda. Giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg etish¹²

¹¹ Stat.uz

¹² <https://lex.uz/acts/-111453>

ya'ni: Giyovandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni har qanday shaklda iste'mol qilishga jalg etish —

uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

- a) ilgari giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarida;
- v) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, —
Oldingi tahrirga qarang.

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Voyaga etmaganlarni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg etishning jamoat xavfi ortib borayotganini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidagi voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalg qilish bilan bog'liq jinoyatni ushbu kodeksining 274-moddasiga qo'shimcha band sifatida qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 5-fevral kuni o'tgan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/05/children/>
2. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati/o-zbekiston-va-xalqaro-xavfsizlik-masalalari.html>
3. Stat.uz
4. <https://lex.uz/acts/-111453>